

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**




**“TASDIQLAYMAN”**  
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**  
**rektori** **Sh.S.Sharipov**  
**2024-yil**

**10.00.02 – O‘ZBEK ADABIYOTI IXTISOSLIGI**  
**BO‘YICHA DOKTORANTURAGA (DSc) KIRISH**  
**SINOVLARI UCHUN “MUTAXASSISLIK” FANIDAN**  
**IMTIHON DASTURI**


Dastur 10.00.02-O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish sinovlarini topshiruvchilar uchun mo'ljallangan.


Mazkur dastur Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasining majlisida muhokama qilingan hamda tavsiya etilgan.

Mazkur dastur Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti Kengashida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan.

**Tuzuvchi:**  O'zbek tili va adabiyoti kafedراسi mudiri, f.f.d. (PhD), dots.  
Murodulla Jo'rayev

**Taqrizchilar:**

 Usmonjon Qosimov  
JDPU O'zbek tili va adabiyoti  
kafedراسi professori, f.f.d. (DSc)

 Nodira Soatova  
JDPU O'zbek tili va adabiyoti  
kafedراسi professori, f.f.d. (DSc)

## KIRISH

Mazkur Oliy ta'limdan keyingi ta'limga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni 34-moddasida («34-modda. Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari») Davlat ta'lim talablari ta'lim sohasidagi tegishli vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi belgilangan. Mazkur Qonunning 26-moddasida («Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari») ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlaridan biri sifatida — O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (hozirda - *Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi*) belgilanganligi hamda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-576-son Qonuni 6-moddasida («O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatlari») Innovatsion rivojlanish vazirligi (hozirda - Innovatsion rivojlanish agentligi) vakolatli davlat organi sifatida — ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtirishi belgilangan.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-576-son Qonunining tegishli bndlari ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, Mazkur Nizom respublika oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimiga majburiy talablari, shuningdek umumiy qabul qilingan xalqaro standartlarni hisobga olgan holda falsafa doktori (Doctor of Philosophy (keyingi o'rinlarda PhD deb ataladi) va fan doktori (Doctor of Science (keyingi o'rinlarda DSc deb ataladi) ilmiy darajalari izlanuvchilarining dissertatsiya ishi mazmuniga va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim — doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim turi;

Doktorantura – Fan doktori, (Doctor of Scines (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqirishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

Oliy ta'lim muassasalarida 10.00.02–O'zbek adabiyoti bo'yicha ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan adabiyotshunoslik fanlari o'quv mazmuniga asoslangan holda ushbu dastur tuzildi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy izlanishlar bilan amaliyot chambarchas bog'liq holda olib borilishi natijasida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda oliy

ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning sifatini oshirish maqsadida doktoronturaning o'quv va ilmiy ishlarini olib borishlarini talab qilmoqda.

O'zbek adabiyoti doktorontura mutaxassisligi uchun tuzilgan Dasturda "O'zbek adabiyoti tarixi", "Adabiyotshunoslik asoslari" va "Adabiyot nazariyasi", va "XX asr adabiyoti" va "Istiqlol davri o'zbek adabiyoti" fanlari doirasidagi masalalar aks etgan.

## ASOSIY QISM

### Adabiyotshunoslik nazariyasi

Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyotning vujudga kelishi, tarixiy taraqqiyoti, mohiyati va aloqalari haqidagi fan. Adabiyotshunoslik va uning tarkibi: adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy tanqid. Qadimgi davr adabiyotshunosligi: Arastu va uning "Poetika" asari.

Sharq adabiyotshunosligi manbalari: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi badia.

Badiiylik asoslari va mezonlari. Badiiy ijod jarayoni va uning matnda aks etishi. Badiiy asar haqida tushuncha. Adabiy asar yaxlitligi va uni yuzaga chiqaruvchi omillar. Badiiy obraz va uning xususiyatlari. Obrazlarning ifodaviyligi. Sujet haqida tushuncha. Adabiyotda sujet turlari va uning unsurlari. Badiiy adabiyotni adabiy tur jihatdan tasniflash tamoyillari. Adabiy turlar va ifoda shakllari. Epos va epik janrlar tasnifi. Drama va dramatik janrlar. Lirik va G'arbiy Yevropada lirik janrlar. O'zbek mumtoz adabiyotining janrlar tizimi. Liro-epik janrlar tasnifi.

Badiiy adabiyotda metod, yo'nalish va adabiy oqim tushunchalari. Metod haqida tushuncha. Adabiy yo'nalishlar. Hozirgi adabiyotdagi adabiy oqim ko'rinishlari. Adabiy jarayon tushunchasi, uning mohiyati va uning adabiyot tarixidagi o'rni. Adabiy jarayonda an'anaviylik, izdoshlik va o'ziga xoslik. Adabiy ta'sir masalalari. Adabiy jarayon qonuniyatlari.

Qadimgi adabiy yodgorliklar. Islomgacha bo'lgan adabiyotning xususiyatlari. "Avesto"da adabiy-nazariy tafakkur. O'rxun-Enasoy obidalari. "Devonu lug'ati-t-turk"dagi adabiy namunalar. "Qutadg'u bilig" dostonining obrazlar tizimi. "Hibatu-l-haqoyiq" asarining ma'rifiy asoslari. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi va hikmat janri taraqqiyoti. Yassaviylik tariqati va "Faqrnoma" tabiati.

Ilk islom davlatlarida badiiy adabiyot taraqqiyoti. Somoniylar, qoraxoniylar, G'aznaviylar adabiy muhiti. Mo'g'ul istilosi davri adabiyoti. "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi hikoyatlar. Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma"si.

Temuriylar davri adabiyoti. Temuriylar davri adabiyotining taraqqiyot omillari. Temuriylar davri adabiyotining janrlar tizimi. XIV asr adabiyotida tasavvufiy talqinlar. Gadoiy, Atoyi, Lutfiy va Sakkokiy she'riyati.

Navoiy tarjimai holining adabiy manbalari. "Xazoyinu-l-maoniy"ning tarkibi. Navoiy ijodida lirik janrlar. "Xamsa"chilik an'analari va Navoiy "Xamsa"si. "Lisonu-t-tayr"da majoz va poetika masalalari. Navoiyning ilmiy merosi, filologik asarlari.

XIV-XIX asrlar (1-yarmi) adabiyoti. Xonliklar davri adabiyotining xususiyatlari. XVI-XIX asrlar adabiyotida ijodiy muhit va maktab masalalari. Bobur badiiy merosi, "Boburnoma". Ilmiy merosi. Qul Ubaydiy ijodi. Mashrab she'riyati. "Mabdainur" muallifligi masalalari. Huvaydo g'azallari poetikasi. Amir Umarxon adabiy muhiti ijodkorlari. Nodira ijodi. Ogahiy she'riyatining obrazlar tizimi.

Ilk uyg'onish davri tushunchasi. Davr adabiyotining xususiyatlari. 1865-1929 ilk mustamlakachilik davri sifatida. XIX asrning so'nggi davridagi adabiy hayot. Fan, maorif, madaniyat va matbuot. Muqimiy, Furqat, Avaz va boshqa davr adabiyoti vakillari. Ma'rifatchilik harakatining yuksalishi. O'zbek ma'rifatparvarligi manbalari, xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlari.

Yangi o'zbek (jadid) adabiyotining ilk taraqqiyot bosqichi (1905-1917). Jadidchilik jabhalari. Jadid adabiyotining o'rganilishi, muammolari. Rossiya mustamlaka siyosatining adabiyotga ta'siri. 1914-yil birinchi jahon urushi va 1916-yil o'rtalari Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining avj olishi. Qo'zg'olonlar, ularning sababi, maqsadi, miqyoslar va inqirozi.

Turkistonda jadidchilikning rivojlanish bosqichlari. Davrlashtirish tamoyillari, ijtimoiy-tarixiy jarayonlar asosida belgilanishi.

1. Ma'rifiy islohotlar davri.

2. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri.

Ma'rifiy islohotlar davrida madaniy-adabiy hayot (1905-1916).

"Usuli jadid" maktabi va Turkistondagi qarashlar: "Usuli savtiya" maktabi va unga munosabat. Turkistonda ilk jadid maktablari. Samarqanddagi jadid maktablarining tashkilotchilari: M.Behbudiy, A.Shakuriy, S.Ajziy, Hoji Mu'in va boshqalar. Toshkentda jadid maktablari: Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar.

Milliy matbuot. Jadidchilik harakati g'oyalarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy manbalari sifatida. Turkistonda milliy matbuotning yuzaga kelishi. Birinchi milliy gazetalar. Mazkur gazetalarning asoschisi va muassislari, g'oyaviy yo'nalishi, maqsad va vazifalari, mualliflari. Gazetalarda yoritilgan masalalarga chor hukumati ma'murlarining munosabati.

Milliy teatr, badiiy adabiyot, ma'rifiy-ijtimoiy she'riyat (A.Avloniy, Hamza, So'fizoda, Siddiqiy-Ajziy, A.Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy) va publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, A.Avloniy, Sayidahmad Vasliy, Hoji Muin).

Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri. Milliy-ozodlik va mustaqillik uchun kurash g'oyalari. Tashkilotlar dasturlari va yetakchilari (Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jaev). "Turkiston muxtoriyati" hokimiyatining tashkil topishi va uning demokratik asosda ekanligi. Oktabr to'ntarishidan keyin adabiyotda umid va umidsizlik, ishonch va shubhalanish kayfiyatining aks etishi (Fitrat, Cho'lpon, Hamza, Avloniy). Milliy tuyg'ularning ijtimoiy-ozodlik, erk ham hurlik motivlarining she'riyatda, nasrda va dramaturgiyada hamda publitsistikada keng yoritilishi. Turli adabiy uyushmalarning maydonga chiqishi.

O'zbek romanchilik maktabining maydonga kelishi. Milliy dramaturgiyaning samarali rivojlanishi. A.Qodiriyning o'zbek adabiyotidagi novatorlik. Mavzular rang-barangligi: millatning tarixiy kechmishi va taqdiri; istibdodga qarshi kayfiyatning ramziy majoziy talqinlari.

Yangi o'zbek adabiyoti. Oktabr to'ntarishidan keyingi o'zbek adabiyoti. Uning yetakchi pafosi, mavzu doirasi va qahramonlari. Davr adabiyotidagi g'oyaviy-uslubiy oqim, yo'nalishlar. Sho'ro davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, U.Nosir, M.Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya kabi shoir va yozuvchilar shu davr adabiyotining xos namoyondalari sifatida. Ular asarlarida tuyg'ular samimiyatining yorqin namoyon bo'lishi. Sho'ro davri adabiyotiga tanqidiy yondashuv zarurati.

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti. Mustaqillik davri adabiyotining hukmron mafkura iskanjasidan qutilgani, adabiyot ko'ngil ishiga aylangani va uning xilma-xillashuvi. Mustaqillik tuyg'usi o'zbek adabiyotida milliy o'zlikni anglashga tashnalik sifatida namoyon bo'lganligi. Istiqlol davri o'zbek adabiyotiga Said Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzaev, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, U.Hamdani va boshqa ijodkorlar qo'shgan hissalar xususida. Ular ijodidagi o'ziga xos xususiyatlar va yetakchi tamoyillar. Istiqlol davri she'riyatining o'zbek milliy tafakkuri va ruhiyati taraqqiyotida tutgan o'rnini. Ayniqsa, ijodkor shaxs hamisha el g'amida, haqiqat yo'lida ezgu ishlar qilishi, ezgu so'zlar aytishi lozimligi tasvirlanganligi.

#### O'zbek adabiy tanqidi tarixi

Adabiy tanqidning vujudga kelishi. Mumtoz adabiyotshunoslik va adabiy tanqid. Tazkira va risolalar. Ularning adabiyot tarixidagi o'rnini. Alisher Navoiyning "Majolisu-n-nafois" asari. Navoiy va Boburning aruz risolalari. XX asr boshlari adabiy tanqidchiligi. Behbudiy, Vadud Mahmud va A.Sa'diy asarlari. Fitratning ilmiy merosi: "Adabiyot qoidalari", "Aruz haqida". Izzat Sulton adabiyot nazariyasi muallifi sifatida. XX asr o'zbek navoiyshunosligi: Fitrat, O.Sharafiddinov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, S.G'anieva va boshqalar.

Zamonaviy adabiy tanqid janrlari. Adabiyotshunoslikda tasavvuf adabiyotining o'rganilishi: N.Komilov va I.Haqqulov asarlari. XX asrning faol munaqqidlari. M.Qo'shjonov, U.Normatov, N.Karimov asarlari. O.Sharafiddinovning tanqid maktabi va uning davomchilari.

### ASOSIY ADABIYOTLAR

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi 2017 yil, 8 fevral).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi. 2017 yil, 21 aprel).
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2010.
7. Karimov I.A Adabiyotga e'tibor ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
8. Avesto. O'zbekchaga tarjima. - T.: 2001;
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 1-19-jildlar. T.: 1991-2002;
10. Bobur. Boburnoma. T.: 1960, 1989, 2002.
11. Boltaboev H. Fitrat va jadidchilik. T., 2007.
12. Jadidchilik islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T.: Universitet 1999.
13. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. – T. Akadernashr, 2014.
15. Karimov N, Normatov U, Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T., 1999.
16. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-3 jild. - T., 2016.
17. Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asari haqida. – T., 1972:
18. Normatov U. Qodiriy mo'jizasi. T., O'zbekiston, 2011.
19. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 2018.
20. Fitrat. Tanlangan asarlar . 2-jild. T.: Ma'naviyat, 2000
22. O'zbek adabiyoti tarixi. 5-jildlik. - T.: Fan, 1978.
24. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. T.: Fan va texnologiya, 2008.
25. Qosimov B. Va boshqalar. Milliy uyg'onish. T.: Ma'naviyat, 2002.
26. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti. Oliy o'quv yurtlarining tarbiya fakultetlari uchun darslik. T., O'qituvchi, 1994.
27. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik.
28. (N. Karimov va boshqalar.) T.: O'qituvchi, 1999.
29. N. Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari T : O'zbekiston, 2008.
30. S. Mirzaev. XX asr o'zbek adabiyoti. T.: Yangi asr avlodi, 2005.
31. Boboev. T. Aruz vaznini o'rganish. T.: 1991.
32. Navoiy. «Mezon ul-avzon» Asarlar. 15 tomlik, T.: Adabiyot va san'at 1967.
33. Fitrat. Aruz xaqida risola. T.: «O'qituvchi», 1997.
34. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: 2006.
35. Arastu. Poetika. Axloqi kabir.-T., Yangi asr avlodi. 2004
36. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar.-T. O'zdamnashr, 1995.
37. Nazarov B. O'zbek adabiyot tanqidchiligi. T. : "Fan", 1979.

38. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zYu Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
39. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari (1-2 jild). – T.: Fan, 2003; 2005.
40. A G'afurov, M Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T., "O'qituvchi", 1987 yil.
41. G'Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T., 1978 yil.
42. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh., O'zbek dialektologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi". 1996
43. Rajabov N., O'zbek shevashunosligi, Toshkent, "O'qituvchi". 1996.
44. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. –Toshkent, O'qituvchi, 1982.
45. To'ychiev B. O'zbek tili tarixining davrlari. – Toshkent, 1996 .
46. Ashirboev S., Azimov I. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Toshkent. 2002.
47. N. Mahmudov, A. Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). T., 1995.
48. To'xlijev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi.– T.: 2010.
49. To'xlijev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: 2010.
50. Jamolxonov H. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni). – T: TDPU, 2000.
51. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T: «Fan», 2006
52. B.O'rinboev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand 2001
53. G' Abdurahmonov. O'zbek tili grammatikasi. T. 1996.
54. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. –Toshkent, O'qituvchi, 1989.
55. Po'latov I.P. Qadimgi turkiy til (muammoli ma'ruza matnlari). –Qo'qon, 2004.
56. Sherbak A.M. Ocherki po sravnitel'noy morfologii turkskix yazikov. –L., 1977; –L., 1981.
57. Ne'matov H.F. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi.–Toshkent, 1992.
58. N. Mahmudov, A.Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). m/m. TDPU., 2008.
59. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T: «Universitet». 2001.
60. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: «O'qituvchi». 1992
61. Akademik litseylarning aniq fanlar yo'nalishidagi tarmoq ta'lim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o'quv dasturlari... Ona tili va adabiyoti /Mualliflar: A.Nurmonov, N.Mahmudov, A. Sobirov, N.Qosimova, Sh. Yusupova. – T.: O'qituvchi, 2005.
62. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari – T: «Fan», 2007.



63. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti. T., O'qituvchi, 2002 y.
64. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. – T.: Fan, 1978.
65. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – T.: Sharq NMK, 2002.
66. Rahmonov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi. T.: "Yangi asr avlodi" 2004.
67. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.; Ma'naviyat. 2004.
68. Karimov H. Istiqlol davri nasri. – T.; Zarqalam, 2007.
69. Zunnunov A.Z., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi T.: «O'qituvchi», 1992 y.
70. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy nazariy asoslari. Toshkent. "O'qituvchi", 1996 yil.
71. Q. Oripov, M. Obidova. Ifodali o'qish. T.: «O'qituvchi», 1994.
72. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: 2006.
73. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. - Samarqand: 2005.
74. Rasulov A. Badiiylik bezavol yangilik. – T: Sharq, 2008.